

TEKNOLOGIK TA’LIM JARAYONIDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING PEDAGOGIK ASOSLARI.

ADPI “Pedagogika va Psixologiya”
kafedrası o’qituvchisi O. Qodirova
ADPI Texnologik ta’lim yo’nalishi
2-bosqich talabasi M. R. To’xtaqulova

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19456826>

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada respublikamizda ta’lim tizimini yanada takomillashtirish masalalari yoritilgan. Xususan, ta’lim oluvchilarda kompetensiyalarni shakllantirish, ta’lim jarayonida kompetentli yondashuvni qo’llash hamda ayniqsa texnologik ta’limda ushbu yondashuvning ta’lim sifatini oshirishdagi ahamiyati tahlil qilingan.*

***Kalit so’zlar:** kompetensiya, kompetentlik, kompetentli yondashuv, texnika va texnologiyalarni modernizatsiyalash, ilm-fan taraqqiyoti.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА В ПРОЦЕССЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ.

***Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования системы образования в нашей республике. Особое внимание уделяется формированию компетенций у обучающихся, а также тому, что компетентностный подход в образовании, в том числе в технологическом образовании, является важным фактором повышения качества образования.*

***Ключевые слова:** компетентность, компетенции, компетентностный подход, модернизация техники и технологий, стремительное развитие науки и техники.*

PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF THE COMPETENCY-BASED APPROACH IN THE PROCESS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION.

***Abstract.** This article examines the issues of improving the education system in our republic. Particular attention is given to the development of learners’ competencies and the importance of a competence-based approach in education. It is emphasized that the competence approach, especially in technological education, serves as an important factor in improving the quality of education.*

***Key words:** competence, competency, competence-based approach, modernization of equipment and technologies, rapid development of science and technology.*

Bugungi kunda dunyo miqyosida ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta’lim tizimiga ham yangi talablarni qo’ymoqda. Ayniqsa, zamonaviy jamiyatda raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan, kasbiy faoliyatda samarali qaror qabul qila oladigan mutaxassislarni tayyorlash ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda kompetensiyaviy yondashuv asosida o’qitishni tashkil etish dolzarb masalalardan biri bo’lib qolmoqda.

Respublikamizda ta’lim tizimini takomillashtirish orqali har tomonlama yetuk, barkamol, mustaqil fikrlashga qodir, irodali, faol va tashabbuskor kadrlarni tayyorlashga katta e’tibor berilmoqda. Hozirgi davrda ishlab chiqarishda texnika va texnologiyalarning modernizatsiyalashayotganligi, ilm va fanning jadal taraqqiyoti mutaxassis kadrlardan o’z

bilimlarini mustaqil va muntazam ravishda chuqurlashtirib, yangilab, to‘ldirib va kengaytirib borishni talab etadi. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi O‘RQ-637-sonli “*Ta’lim to‘g‘risida*”gi qonuni xalqaro talablardagi zamonaviy taraqqiyotini ta’minlay oladigan bilimli, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, keng tafakkurli, malakali, shu bilan birga shaxsiy va kasbiy sifatlari shakllangan barkamol kadrlarni tayyorlash maqsadini ko‘zlaydi. Chunki globallashuv sari borayotgan hozirgi dunyoda xalqaro raqobat jarayoni shartlariga tez moslashuvchan hamda mamlakatning muvaffaqiyatli va barqaror rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘sha oladigan mutaxassislarni tayyorlash ta’lim tizimining asosiy maqsadi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida ham ta’lim tizimini takomillashtirish, uning sifatini oshirish hamda xalqaro standartlarga moslashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonda ta’lim oluvchilarda nafaqat nazariy bilimlarni shakllantirish, balki ularni amaliy faoliyatda qo‘llay olish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa ta’lim jarayoniga kompetensiyaviy yondashuvni joriy etishni taqozo etadi.

Texnologik ta’lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv o‘quvchilarda texnik tafakkur, ijodkorlik, muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyati hamda amaliy faoliyatga tayyorgarlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, yangi bilimlarni egallashga bo‘lgan ehtiyojini hamda zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi[1].

Texnika va texnologiya jadal rivojlanib borayotgan hozirgi sharoitda har qanday davlatning mavqei aholisining turmush darajasi, siyosiy va iqtisodiy faolligi bilan belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasining bugungi va istiqboldagi barqaror iqtisodiy o‘shishini ta’minlovchi omillar ta’lim sohasining rivojlanishiga ham bevosita bog‘liq. Oliy ta’lim muassasalarida yoshlarning shaxsiy rivojlanishi ularning ijodiy fikrlashi, mustaqillik, faol munosabatlarining boyib borishi, dunyoqarashining o‘z-o‘zini nazorat qilish va tarbiyalashga bo‘lgan ehtiyojlarning shakllanishi kabi holatlar bilan tavsiflanadi. Bo‘lajak Texnologiya o‘qituvchilar uchun ham ta’lim muassasalarida ta’lim olish jarayoni – bu insonda mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishda ahamiyatli hisoblangan kasbiy bilim, ta’lim sifati, kompetentlik va darajali mezonlar asosida rivojlantirish hamda o‘z-o‘zini takomillashtirishning eng maqbul davridir.

Kompetensiya o‘z bilimlarini tinmay boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganish, shu kun va davr talablarini his etish, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, o‘z amaliy faoliyatida qo‘llashni talab qiladi. Kompetensiya egasi bo‘lgan mutaxassis muammolarni yechishda o‘zi o‘zlashtirib olgan, aynan shu sharoitga mos metod va usullardan foydalanishni yaxshi bilishi, hozirgi vaziyatga munosib bo‘lgan metodlarni tanlab olib qo‘llashi, to‘g‘ri kelmaydiganlarini rad etishi, masalaga tanqidiy ko‘z bilan qarashi kabi ko‘nikmalarga ega bo‘ladi[2].

Kompetentlik bo‘lajak o‘qituvchining shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatni amalga oshirishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo‘llay olishini ifodalaydi. Shundan kelib chiqqan xolda “kompetentlik”, jumladan “Texnologiya o‘qituvchisining kompetentligi” tushunchasining mohiyati u quyidagi ikki ko‘rinishda namoyon bo‘ladi:

- Texnologiya o‘qituvchisining kompetentligi–Texnologiya o‘qituvchisi-ning shaxsiy sifatlari to‘plami; Texnologiya o‘qituvchisining kasbiy faoliyati (sohasi) ning asosiy talablari ko‘rinishida.

Kompetentlik talaba tomonidan alohida bilim va malakalar egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligi darajasiga qo‘yiluvchi talablar nuqtai nazaridan kompetentlik talabalarning muayyan vaziyatlarda bilim, malaka va faoliyat usullari to‘plamini maqsadga muvofiq qo‘llash qobiliyatini anglatadi[3].

Shu nuqtaiy nazardan Texnologik ta’limda kompetentli yondashuv ta’lim sifatini oshirish-rakobotbardosh Texnologiya o‘qituvchisini tayyorlash omili xisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, texnologik ta’lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni qo‘llash ta’lim samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarda nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki ularni amaliy faoliyatda qo‘llay olish ko‘nikmalarini ham shakllantiradi. Natijada ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyati hamda kasbiy faoliyatga tayyorgarligi rivojlanadi.

Zamonaviy texnika va texnologiyalarning jadal rivojlanishi sharoitida texnologik ta’lim jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o‘quvchilarning ijodiy fikrlashi, texnik tafakkuri va innovatsion g‘oyalarni amalga oshirish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning amaliy faoliyatga tayyorgarligini kuchaytirish hamda zamonaviy mehnat bozorining talablariga mos mutaxassislarni tayyorlashga yordam beradi.

Shu sababli texnologik ta’lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning pedagogik asoslarini chuqur o‘rganish va amaliyotga keng joriy etish ta’lim tizimini rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim tizimini rivojlantirishga oid qarorlari va farmonlari.
3. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: Fan, 2019.
4. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2017.
5. Zimnyaya I.A. Klyuchevye kompetensii kak rezultat obrazovaniya. – Moskva, 2004.
6. Xutorskoy A.V. Kompetentnostnyy podxod v obrazovanii. – Moskva, 2003.